

BOLALAR KIYIMLARI HUSUSIYATLARI VA ULARDAGI ERGANOMIK KO'RSATKICHLAR TAHLILI

Abdujalilova Mavluda Qo'shoqboy qizi

Namangan to'qimachilik sanoati instituti 15d-21 guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalar kiyimlari uchun tavsiya etiladigan matolarning fizik maxanik xususiyatlari hamda bolalar psixologiyasiga ta'sir etuvchi diapazonlar va tayyor ishlab chiqarilgan buyumni bolalarmi ergonomok harakarlarida ta'siri o'r ganib tahlil qilingan.

So'ngi yillarda yengil sanoat mahsulotlariga bo'lган talab yuqori o'rinnarda jadal o'sib bormoqda. Bunga sabab qilib esa inson ehtiyojlaridan kelib chiqgan holda kiyim kechak mahsulotlariga bo'lган talablarni misol qilib aytishimiz mumkin .

Hozirgi zamonaviy davrda yengil sanoat mahsulotlari, hususan bolalar liboslarining sifatini yanada oshirish va uning tashqi ko'rinishi, uning qulayligi har doimgidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda , sababi ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobat juda ham kuchli. Ayniqsa yurtimizda to'qimachilik texnologiyasi va tikuv trikotaj sihasiga berilgan etibor va keng imkoniyatlar taqsimga sazovor.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning ko'plab nutq va maruzalaridan shuni anglashimiz mumkinki, bizning eng oliy maqsadlarimizdan biri bo'lган kelajak avlodni kichik yoshidanoq o'z dunyo qarashiga ega , tezkor , chaqqon , aqilli , o'ziga ishongan, vatan ruhida tarbiyalash kabi masulyatli vazifalar bizni oldimizda mujassam . Bolalarning bunday salohiyatda o'sishida esa kiyimlarning ham o'rni beqiyos . Bolalar kiyimlarida birinchi navbatda unga tanlangan mato kichkintoylarni tashqi tasirdan himoya qilishi ularda havo serkulyatsiyasini yaxshilashga hizmat qilishi lozim . Bolalarning dunyo qarashi kattalarnikiga nisbatan tubdan farq qiladi , negaki ularda qaysidir manoda jo'shqinlik , yangi hayotga bolgan qiziqshlarini yanada orttirib beradi .

Bolalar kiyim kechaklarida matolarning yorqin ranglarda bo'lishi yumshoqliligi , uning yengilligi fizik mexanik xususiyatlarini inobatga olishimiz lozim Matolarning yorqinligi bolalarning dunyo qarashi , psixalogiyasi haqida malumot beradi va qabul qilish diapazonlarining tezda rivojlanishini taminlaydi. Bolalar kiyimlarida matolarning yumshoqligi ham muhim ahamiyat kasb etadi negaki bolalar yumshoq hamda momiq kiyimlar asortsmentiga o'zlarini ijobiy harakatlari yordamida isbotlab berishadi . Asosan trikotaj hamda ipakli , yungli matolardan tayyor bolgan kiyimlar ularni nafaqat kundalik hatto uydan tashqariga kiyib chiqish uchun ajoyib ko'rinish kasb etadi . Katta yoshdagilari

insonlarga nisbatan bolalarda kiyimlarning yengilligi muhim hisoblanib ular harakat tizimida muammolarni keltirib chiqarmasligi uchun yengil kiyimlar tavsiya etiladi. Yana muhim jihatlardan biri ergonomika hisoblanadi chunki bolalar harakatchan bo'lib ularda ishqalanish hisobiga solqilar hosil bo'lib qoladi. Shu sababli bolalarga asosan keng hamda cho'ziluvchan matolar tavsiya etiladi. Ularda harakat tizimi endi rivojlana boshlaganligi sababli yuqorida ko'rsatilgan salbiy omillar tasir qilmasligi kerak, aks holda esa bolalarda harakatlanish yani yurishda muammolar kelib chiqishi mumkin va bu holatda bola yurishdan to'xtab qolishi mumkin

Yosh bolalar kiyimlari kattalar kiyimlaridan ayrim xususiyatlaridan tashqari bir biriga o'xhash bo'ladi. Lekin chaqaloq va to'rt besh yoshgacha bo'lgan bolalar kiyimlari uzining ayrim xuxusiyatlari bilan ajralib turadi. Yangi tug'ilgan chaqaloqqa birinchi kigiziladigan ko'yak chilla ko'yak deb nomlanadi. U paxta matosidan choklardan foydalanmay tikilgan. Huddi shu ko'yak ustidan jubba nomli ust kiyim kigizilgan. Jubba ham paxta matodan bo'lib tagligi yupqa paxta bilan astarlangan. To'rt besh yoshdagi o'g'il va qiz bolalar ko'yaklari bir xil bichiladi. Yoqasi tikka yelka qismi uzunasiga to'g'ri bichilib, choklanib yenglari uchi tomon torayib boradi. Yenglariga va yoqalariga mag'iz qilinadi.

Bolalar razmer tipalogiyasiga ahamiyat beradigan bo'lsak bunda eng avvalo yana bir bor takidlab o'tamiz mato hususiyatlari katta o'rin egallaydi. Yumshoq cho'ziluvchan materiallarda chok haqqi kamdan kam hollarda beriladi.

Mato cho'zilishi natijasida kiyimda konstruktiv nuqsonlarni ham keltirib chiqarmaydi. Asosan deformatsiyaga uchraydigan joylariga qushimchalar tavsiya qilinmasa boshqa joylariga chok haqqi quyilmasa ham bolaveradi.

Bolalar kiyimlarida dekaratsiya ham juda katta va chuqr manoni ham anglatadi. Ularning ust kiyimlarida uchraydigan dekoratsiya bolaning qiziqishlarini ham namoyon qilib beradi. Kichik yoshdagi o'g'il bolalarda asosan pistonli asosrtimentlar tavsiya qilinsa, qiz bolalarda koproq ipakli, popukli hamda uzun lentalardan dekoratsiya sifatida foydalaniladi. Bolalarga molniya taqilmalari tavsiya etilmaydi chunki molniya taqilmalari orqali ko'ngilsiz vaziyatlarga tushib qolmasligi uchun ulardan foydalanilmaydi.

Xulosa qilish joizki bolalar kiyimlarini organish jarayonida ulardagi muammoli vaziyatlarni berkitib hozirgi kundagi yangi bolalar madellarini ustida ishslash ko'zda tutiladi. Ayniqsa yosh avlodni tarbiyalashda ularni ehtiyojlariga mos ravishda assortsmentlar yaratilishi joiz ekanligiga guvoh bo'ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rayimberdiyeva D.X., Nabidjanova N.N., Ergasheva R.A. The importance of colors artistic gimnastik clothing // Scientific and Technical Journal Namangan Institute of Engeneering and Technology 2022 Tom 7. №1, p.63-67. (05.00.00. №33.)
2. Rayimberdiyeva D.X. Ergasheva R.A., Khalilov K. M. Analysis of Requirements for children`s clothes // American Journal of Busines Management, Economics and Banking Volume 5 oct., 2022, p. 27-30. (JIF Impact factor 7.725).
3. Rayimberdiyeva D.X., Abdusalomova M.U. Create a new design project of the base drawing of the sun skirt // International journal of advanced research in education, technology and management: 2, p. 419-425. (ResearchBib impact factor 8.1)
4. .S., **Rayimberdiyeva D.X., Ergasheva R.A. Tikuv trikotaj buyumlari assortimentining tahlili// Jizzax politexnika instituti “Iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishini fan, ta’lim hamda modernizatsiyalashgan energiya va resurstejamkor texnologiyalar, texnik vositalari: muammolar, yechimlar, istiqbollar” Respublika ilmiy-texnik anjumanı materiallari, 1-qism, 2016 yil, 381-384 b.**
5. Rayimberdiyeva D.X., Ergasheva R.A. Konstruktiv-dekorativ elementlari bilan bezatilgan buyumlarni andozalarini tayyorlash // Italy Conference ‘Formation of Psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences’ international scientific-online conference, 2023, p. 201-202.
6. Ergasheva R.A., Rayimberdiyeva D.X. Ranglarning kiyimga ta’sir etuvchi kompozitsion yechimi va koloristik qatorini tuzish // Pedagogical sciences and teaching methods, volume 2, №21, 2023, p.153-155 .
7. Rayimberdiyeva D.X. Badiiy gimnastika kiyimlarini tikishda hosil bo‘lgan bahyaqatorlarni sinovdan o’tkazish// Urganch Davlat Universiteti Respublika miqyosidagi ilmiy-texnikaviy anjuman ”O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning muammolari va innovatsion yechimlari”, 2023 yil 17-18-noyabr, 160-163 b.